

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
<b>G.S.Sidiqova</b>	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyası .....	118
<b>X.X.Xaydaraliyev</b>	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
<b>R.A.Hamroqulov</b>	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash .....	128
<b>E.I.Allomov</b>	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari .....	134
<b>T.A.Eshimov</b>	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi .....	147
<b>Q.M.Xakimov</b>	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
<b>Sh.V.Djalalov</b>	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
<b>X.M.Sotvaldiyeva</b>	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari .....	159
<b>S.I.Quziyev</b>	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari .....	162
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Methodology and outcomes of english language teaching .....	168
<b>M.Axmedova</b>	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
<b>G.Astonova</b>	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
<b>G.R.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar .....	179
<b>N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova</b>	
Nutq o'stirishning metodik usullari .....	183
<b>M.S.Ro'ziboyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....	188
<b>N.N.Nabiyeva</b>	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati .....	193
<b>D.I.Asqarova</b>	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar .....	197
<b>D.T.Yuldasheva</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari .....	202
<b>Y.A.Mirzaboyev</b>	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....	206
<b>R.Sh.Sharofutdinova</b>	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari .....	210
<b>Sh.T.Mavlonova</b>	
Inkluyuziv ta'limgan o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik,	



**O'QUV MASHG'ULOTLARI DAVOMIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK  
FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILL SHATIRISH**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ  
УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**METHODICAL GUIDE FOR DEVELOPING PATRIOTISM VIRTUES IN STUDENTS  
DURING THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich** 

Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)

**Annotatsiya**

"O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi maqolada talabalarga vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanirish uchun qanday metodikaning amalga oshirilishi haqida ma'lumot berilgan. Bu metodika, talabalarни davlati, milliyoti va vatan bilan tarbiyalashga qaratilgan va ularni qaysi amaliy ishlar orqali mavzuga oid tushunishlarini mustahkamlashda yordam berishi kutilmoqda.

**Аннотация**

В статье "Совершенствование методики развития патриотических качеств у студентов в процессе учебных занятий" рассматривается информация о способах реализации методики развития патриотических качеств у студентов. Данная методика была разработана для воспитания студентов сознательной гражданской позиции и укрепления их понимания отношения к своей стране, нации и родине путем проведения практических мероприятий, которые помогут укрепить их понимание темы.

**Abstract**

The article discusses the methodology of developing the virtues of patriotism in students during the learning process. Information about how this methodology is implemented to enhance students' understanding of patriotism is provided. This methodology is designed to educate students about their country, nationality, and homeland, and help them strengthen their understanding of the topic through practical activities.

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, tamoyil, takommillshatirish, mafkura, islohot, texnologiya, patriotizm, shaxs, taraqqiyot, ekstremizm, dastur.

**Ключевые слова:** Отчество, идеалы, совершенствование, идеология, договор, технология, патриотизм, личность, прогресс, экстремизм, программа.

**Key words:** Patriotism, ambition, development, ideology, dialogue, technology, patriotism, individual, progress, extremism, program.

**KIRISH**

Jahonda global tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi vaziyatda insonlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni "Vatan" degan tushunchaning ma'nosini to'liq anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlikni yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifaga aylanmoqda. Ayni paytda rivojlangan davlatlarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan dasturlar, motivasion tadbirlar, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonida vatanparvarlik fazilatini rivojlanirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik jarayonlar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuvlar talabalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini mustahkamlash, har qanday faoliyatda mas'uliyat va javobgarlik hissini paydo qilish, qat'iyatlilik va yurtga sadoqat tuyg'usini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqotlar zaruratini ortirib yubormoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanirish asosida ularda fidoyilik, sadoqatlichkeit, mardlik, mas'uliyatlichkeit, daxldorlik va javobgarlikni shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, vatanparvarlikni ichki safarbarlik manbasi, shaxsning faol fuqarolik qarashlari, uning o'z Vataniga fidokorona xizmat qilishga

tayyorligi sifatida namoyon bo'luvchi ma'naviy asos ekanligiga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSHda nasional-liberalizm mafkurasini yoshlarda vatanparvarlikni oshirishga qaratilgan, Yaponiyada «yapon mo'jizasi»ga asoslangan ta'limgarbiya jarayonida vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga oid izlanishlar olib borilmoqda. Bu orqali talabalarda ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar, turli ijtimoiy ta'sirlarga qarshi ijtimoiy pozisiyani shakllantirish, terrorizm, missionerlik, diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", gedonizm, eskapizm, daunshifting, loqaydlik, befarqlik kabi illatlarga qarshi vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish", buning uchun esa ularni "vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish"<sup>6</sup>ga qaratilgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa vatanparvarlik tarbiyasiga doir tizimni isloh qilish, modernizatsiyalash, metodik imokniyatlarini takommillshatirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Biroq, «biz shu paytgacha yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini zamonaqiy ilmiy asosda yo'lga qo'ya olmadik. Yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlari mavjud emas. Vaholanki, xorijiy mamlakatlarda allaqachon o'rganishimiz va joriy etishimiz zarur bo'lgan bunday ijobji tajriba mavjud»<sup>7</sup>. Shu ma'noda, bugungi ta'limgagi islohotlar sharoitida bo'lajak kadrlarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, uga yangicha yondashuvlarni olib kirish asosida fidoyilik va sadoqatlichkeit, mas'uliyatlichkeit va javobgarlikni anglay oladigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 12 dekabrdagi PQ-436-II-son «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, 2019-yil 28-iyundagi PF-4375-son «O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagagi 140-son «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev barcha asarlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning tarixiy asoslari Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Yusuf Xos Xojib, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoni, Abdulla Avloniy kabi mutafakkir olimlarning mumtoz asarlari o'zaksini topgan.

Oliy redagogik ta'lilda talabalarda vatanrarvarlik fazilatini shakllantirish, milliy tarbiyaga ustuvorlik berish asosida vatanrarvarlikni baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari Sh.Barotov, A.Begmatov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, Q.Nazarov, S.Nishonova, B.Xodjayev, M.Sharifxo'jayev, B.Shermuhammedov, J.Yuldashev, M.Kaxxarova, M.Qirg'izboyev, M.Quronov va boshqalar tomonidan tadqiq yetilgan. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlikning nazariy va amaliy asoslari I.Inoyatov, Sh.Jo'rayev, M.Nabiiev, A.Uzaqov kabilalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishdek murakkab pedagogik jarayonda faoliyatni tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarini tanlay bilish, ulardan o'rinni va maqsadga muvofiq foydalanish o'zining ijobji natijalarini berdi.

Tadqiqot doirasida amalga talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning shakl va metodlari, ta'limgarbiyasi samaradorligi tajriba-sinovdan o'tkazildi.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>7</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy tilkanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.139.

## PEDAGOGIKA

Tajriba-sinov ishlarni amalga oshirish uchun 2020-2023 yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining «Harbiy ta'lif» yo'nalishi, Farg'ona davlat universiteti va Buxoro davlat universiteti «Harbiy ta'lif» yo'nalishlari talabalari orasida anketa va test sinovlari o'tkazib borildi. Tajriba maydonlaridan sinov ishlariiga jami 720 nafar talabalar respondent sifatida qabul qilindilar.

## 1-rasm

**Tajriba maydonlarida sinov ishlariiga jalb etilgan respondent-talabalari va o'qituvchilar**

OTMlari nomi	2020-2021 yillar	2021-2022 yillar	Jami
	Talabalar soni	Talabalar soni	Talaba-lar soni
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining «Harbiy ta'lif» yo'nalishi	127	111	238
Farg'ona davlat universiteti «Harbiy ta'lif» yo'nalishlari	110	114	224
Buxoro davlat universiteti «Harbiy ta'lif» yo'nalishlari	113	125	238
Jami	360	360	720

## 2-rasm

**Respondent-talabalarning vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanganlik darajasi (ta'kidlovchi tajriba)**

Guruqlar	Talabalar soni	Ko'satkichlar darajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	360	95	145	120
Nazorat	360	85	120	155

## 3-rasm

**Respondent-talabalarning vatanparvarlik fazilatlariga doir amaliy malakalari darajasi (ta'kidlovchi tajriba)**

Guruqlar	Talabalar soni	Ko'satkichlar darajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	360	84	181	95
Nazorat	360	72	171	117

Tajriba boshi va yakunida qo'lga kiritilgan ko'satkichlar o'tasidagi farqni yaqqol ifodalash maqsadida quyidagi jadval shakllantirildi:

## 4-rasm

**Respondent-talabalarning vatanpavarlikni rivojlanganligi bo'yicha nazariy bilim va amaliy malakalarining dinamik o'sishi (asoslovchi va ta'kidlovchi tajribalar)**

Guruqlar darajalar Bosqichla r	Tajriba-sinov guruqlari $n_2 = 360$ nafar			Nazorat guruqlari $n_1 = 360$ nafar		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Nazariy bilimlar darajasi						
Asoslovchi tajriba	90	138	132	80	146	134
Ta'kidlovchi tajriba	95	145	120	85	120	155

Amaliy malakalar darajasi						
Asoslovchi tajriba	85	145	130	73	142	145
Ta'kidlovchi tajriba	84	181	95	72	171	117

Tanlangan metod mohiyatiga ko'ra matematik-statistik tahlil yakunida tajriba-sinov ishlarning sifat ko'rsatgichlari topiladi:

Bizga ma'lumki,  $\bar{X} = 4$ ;  $\bar{Y} = 3,8$ ;  $\Delta_m = 0,01$ ;  $\Delta_n = 0,02$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yos} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_n)} = \frac{4 - 0,01}{3,8 + 0,02} = \frac{3,99}{3,78} = 1,05 > 1;$$

$$K_{606} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = (4 - 0,01) - (3,8 - 0,02) = 3,99 - 3,78 = 0,21 > 0;$$

Hosil bo'lgan ko'rsatkichlar tajriba-sinov ishlarning samaradorlik darajasini baholovchi mezonning birdan, tajriba guruhlari respondent-talabalarining falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlanganligi ko'rsatkichlari baholovchi mezonning noldan kattaligini ko'satadi. Xudi mana shu holat tajriba guruhlarida qayd etilgan natijalarning nazorat guruhi natijalaridan yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shunday qilib, falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari samarali tashkil etildi.

Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish" tadqiqi doirasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. "Vatanparvarlik", "vatanparvarlik fazilatlari", "patriotizm", "vatanparvarlik tuyg'usi" kabi tushunchalarning falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-ma'naviy mohiyatiga doir konseptual qarashlar asosida vatanparvarlikni mustahkamlovchi va aksincha uni yemiruvchi fazilat va illatlarning falsafiy-pedagogik mazmuni asoslandi.

2. Vatanparvarlik "muhabbat" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqligi va chinakam vatanparvarlik muhabbatdan tashqarida voqe bo'lolmasligi yoki muhabbatsiz chinakam vatanparvarlikning bo'lishi mumkin emasligi hamda vatan ham, vatanga muhabbat tuyg'usi ham har bir kishiga aziz va muqaddas ekanligi, umuman olganda, muhabbat makrodarajadagi vatanparvarlik hamda barcha axloqiy fazilatlarining asosi hisoblanishi asoslandi.

3. Vatanparvarlik mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan yuksakka, ulug'vorlikka ko'tarilishi va vatanni dushmanidan himoya qilish, unga sadoqat bilan xizmat qilish va bu yo'lda jonini fido qilish yuksak axloqiylik hisoblanib, bunday axloq xudbinlikdan burchni anglashga o'tishi ekanligi asoslandi.

4. Vatanparvarlik horijiy ilmiy manbalarda patriotizm vatanga muhabbat, tug'ilib o'sgan yurt bilan bog'liqlik va unga sadoqat sifatida qo'llanilishi, ammao patriotizm ko'pincha vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy quroq, xalq milliy o'zligining asosi hamda o'z vatanining tarixi, madaniyati, qadriyatiga bo'lgan muhabbat sifatida talqin etilishi aniqlashtirildi.

5. Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik va didaktik asoslari o'rganish asosida ommaviy madaniyatning turg'unlik, deviantlik, marginallashuv, lyupenlashuv, kosmopolitikga yetaklaydigan salbiy ta'sirlarning tabiatini tasniflash hamda ularning profilaktikasiga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar aniqlashtirildi.

6. Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan ham bog'liqligi, bunda vatanparvarlik fazilati rivojlangan talabaning mafkuraviy immuniteti kuchli bo'lishi va mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan talabaning esa ma'naviyati yanada yuksalib borishiga asos bo'lishi asoslandi.

7. Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish masalasi millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish; o'zga millatlarni hurmat qilish; ajdodlar xotirasi oldida vorislik mas'uliyatini his qilish kabi tarbiya jarayonining jiddiy va kechiktirib bo'lmas vazifalari bilan bog'liqligi kelib chiqadi.

**PEDACOGIKA**

8. Falsafiy ta'lim asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish zarurati va imkoniyatlarini tadqiq etish asosida vatanparvarlik fenomeni hamda qahramonlikning milliy-axloqiy idealni shakllantirish, vatanparvarlik fazilatlarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish orqali jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning gnoseologik va aksiologik xususiyatlari tizimli-funksional tamoyil asosida olib berildi.

9. Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni (dunyoqarashni shakllantirish, "Etika" faniga ustuvorlik berish, axloqiy tarbiyalash) va shart-sharoitlari(falsafiy yondashuvlar, metodlar va vositalarni integral qo'llash) aniqlashtirildi.

10. Falsafiy fanlarni o'qitish jarayonida talabalarga milliy qadriyatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati, o'zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlarni berishga jiddiy e'tibor qaratish vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantruvchi ijtimoiy-pedagogik omil bo'lib xizmat qilishi asoslandi.

11. Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikaciga yo'naltipilgan o'qitish tizimini zamон talablapi acocida takomillashtipilgan modelini ishlab chiqish, ppofecop-o'qituvchilapning talabalapga moc keladigan ta'lim uclubi va pivojlanish ctpategiyacini aniqlash, tupli xildagi pedagogik vocitalap, ucullapni tacniflash, mavjud manbalap va boshqa yopdamchi matepiallapdan foydalanish imkonini bepishi aniqlashtirildi.

12. Tadqiqot doipacida ishlab chiqilgan falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyaci o'zapo bip-bipi bilan uzviy bog'langan va aloqadop algopitmlap cifatida texnologiyalashtipilgan, mavzulapning mazmun-mohiyati, shakl, metod va vocitalapini o'z ichiga olish bilan bipga talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga imkon bepishi aniqlashtirildi.

**XULOSA**

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantiruvchi ta'limiy-tarbiyaviy dastur rejalarini amalga oshirish bo'yicha so'rovlar o'tkazish natijasida mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

2. Oliy ta'lim muassasalarida harbiy sohaga qiziquvchi talabalarning xohish-istaklari va qiziqishlariga yo'naltirilgan "Vatanparvarlik hub" klublar faoliyatini yo'nga qo'yish va kuchaytirish;

3. Professor-o'qituvchilar uchun "Falsafada vatanparvarlik tarbiyasi" nomli metodik qo'llanma yaratish;

4. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish maqsadida, vatanparvarlik ruhidagi kinolar, teatrlar, muzeylar, adabiyotlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning ongiga salbiy ta'sir qiluvchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadga muvofiq.

5. Har yili «Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans» g'oyasi asosida "Vatanparvarlik universiadasi" ijtimoiy loyihasi va forumini o'tkazishni an'anaga aylantirish.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent: O'zbekiston, 2020 yil 23 sentyabr. (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyub.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 16 may.
5. Roulinson Genri, Djordj Smit, Norris. The cuneiform inscriptions of Western Asia. – 1961 -70 r.
6. Sosiologicheskiy slovar /Avt.-sost.: Osipov G.V, Moskvichev L.N., Chernouchev O.Ye. – M.: Norma, 2010. 608 s.
7. Temur tuzuklari. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016. – 72 b.
8. To'ychiyev B. Preodaleniya sosialno-negativnykh yavleniya i problemy formirovaniya lichnosti spesialista organov vnutrennykh del. Vsb. Formirovaniye lichnosti budushchego spesialista organov vnutrennykh del. MVD RUZ. – Tashkent, 1992. – S.24-29;
9. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: Sharq, 2000. – 496 b.